



QO‘QON ADABIY MUHITI SHE‘RIYATIDA LAYLI TIMSOLI

Ulug‘murodova Kamola Murodullayevna
f.f.f.n.(PhD). dots.v.b. Profi University Navoiy filiali

ANNOTATION

This article studies the poetic interpretation of the image of "Layli" in the work of representatives of the Kokand literary environment formed in the 19th century. In particular, the content and essence of this image in the Kokand literary environment, nourished by the traditions of Hafiz Shirozi, Fuzuli, Navoi and enriched with its own style, is analyzed. The article analyzes the spiritual and aesthetic image of Layli in the work of poets such as Uvaysi and Nodira, the artistic ideas expressed through her, the exaltation of the image of a woman and her combination with mystical concepts. The results of the research demonstrate the continuity of classical literary traditions in the Kokand literary environment and the artistic elevation of the image of a woman reinterpreted in the national spirit.

KEYWORDS: Layli, Majnun, Kokand, Creator, Poet, Image, Verse, Symbol, Literary Environment.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asrda shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining ijodida “Layli” obrazining poetik talqini o‘rganiladi. Xususan, Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Navoiy an‘analaridan oziqlangan va o‘ziga xos uslub bilan boyigan bu obrazning Qo‘qon adabiy muhitidagi mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Maqolada Uvaysiy, Nodira kabi shoirlar ijodida Laylining ma‘naviy-estetik qiyofasi, u orqali ifodalangan badiiy g‘oyalar, ayol obrazining yuksaltirilishi va tasavvufiy tushunchalar bilan uyg‘unlashuvi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Qo‘qon adabiy muhitida mumtoz adabiyot an‘analari davomiyli va milliy ruhda qayta talqin etilgan ayol obrazining badiiy yuksakligini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: Layli, Majnun, Qo‘qon, ijodkor, shoir, obraz, bayt, timsol, adabiy muhit.

XVIII-XIX asrlardagi ma‘naviyatimiz tarixida Qo‘qon adabiy muhiti o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davrda ijod qilgan shoirlar haqida turli manba va tadqiqotlarda ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, olim Aziz Qayumov bu davr haqida shunday yozadi: “Qo‘qon adabiy muhiti haqida chuqurroq tanishishga imkon beradigan asosiy manbalar o‘sha davrda yashab, ijod etgan ko‘p sonli shoirlarning bizgacha yetib kelgan oz sonli devon va she‘riy to‘plamlaridir”¹. Zero, manbalarning soni ozchilikni tashkil etsa-da, ulardagi badiiy qiymatning yuqoriligi alohida ahamiyat kasb etadi². Xususan, 1821-yilda Umarxon topshirig‘i bilan shoir Fazliy tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” XIX asr birinchi yarmidagi Qo‘qon adabiy muhitini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi muhim manbadir. Unda o‘sha davrda ijod qilgan 100 ga yaqin shoirning she‘rlaridan namunalar kiritilgan. “Ikkinchi muhim manba Qori Rahmatullo Buxoriy tomonidan tuzilgan “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” tazkirasidir. Unda Qo‘qon shoirlaridan Akmal, Gulxaniy, Ado, Amir kabilar haqida ma‘lumotlar bor”³. Mazkur manbalar shuni ko‘rsatadiki, XVIII asrning oxiri – XIX asr birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhiti jadal rivojlangan. Buni Boborahim Mashrab, Uvaysiy, Amiriy, Nodira, Maxmur,

Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Haziniy, Kulfat kabi shoir va shoirlar ijodi misolida ko‘ramiz.

Bu davr she‘riyatida an‘naviy obrazlar, xususan, Layli obraziga murojaat doirasi bir oz kengaydi. Mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan timsol va obrazlar endi ijtimoiy mohiyat kasb eta boshladi. Mumtoz she‘riyat tarixida Majnuning suyuqli yori, Yaratganning yerdagi tajalliysi, ilohiy mazhar kabi ma‘no-mohiyatning yoniga endi ijtimoiy motivlar ham qo‘shila bordi. Shu ma‘noda bu davr she‘riyatida qo‘llangan Layli obrazini quyidagicha tasniflash mumkin:

- Yaratganning yerdagi tajallisi;
- Majnuning suyuqli yori;
- Badiiy asar qahramoni;
- Asar nomiga ishora;
- Go‘zal yor;
- Lirik qahramon sevgilisi;
- lirik qahramon holatiga muqoyasa qilingan obraz,
- Farzand ;
- Umarxon nomiga ishora ;
- Vatan timsoli;
- Vafo timsoli.

Qo‘qon adabiy muhitida Jahon otin Uvaysiyning o‘ziga xos o‘rni bor. Yuksak poetik mahoratga ega bo‘lgan “shoira g‘azallarida mazmun ancha berkitib beriladi. Baytdagi ma‘nolar mazmunini anglash qiyinchilik bilan amalga oshadi. Bu hol she‘r shaklini murakkablashtirib, tushunishni

¹ Қаямов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1991. – Б. 8.

² Ви haqda qarag‘ang: “Тазкиратуи шуарои Ҳашират”; Имомали Қундузий. “Таворихи манзума”; Муширф Исфарағий. “Шаҳномаи Нусрат наём”; Н. Ф. Петровский. “История Кокандского ханства”. Мақола. Журнал. Вестник Европы. 1875. № 10.

³ O‘sha manba. – B.13.



og'irlashtiradi"⁴. Shu bois uning ijodi hozirga qadar ko'plab ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada filologiya fanlari doktori, professor I.Adizovaning tadqiqotlari fikrimizga asos bo'la oladi. Olima Uvaysiy ijodi borasida shunday fikrlarni ilgari suradi: "Uvaysiy asarlari keng qamrovli, teran mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan falsafiy-irfoniy ma'nolardan ham xoli emas. Xususan, ishq mavzusi olam, odam va Alloh munosabatlarini uyg'unligini o'zida mujassamlashtiradi. Agar uni faqat insonning insonga munosabati tarzida anglasak, shoira fikr-g'oyalardan ancha uzoqlashib ketamiz. Uning nuqtai nazarini, dunyoqarash va hayotiy xulosalarini noto'g'ri tushunamiz. Shunday ekan, asarlari mazmun-mohiyatini, lirik qahramon tabiatini, badiiy tasvir va ifoda vositalarini keng miqyosda qayta baholash bugungi kun adabiyotshunosligimizda nihoyatda dolzarblik kasb etadi"⁵.

Ma'lumki, "Uvaysiy o'zini mehnat-u alamlarga muhtalo, qayda dard eli bo'lsa oshno shoira sifatida tanitadi. Adabiyotimiz tarixida Uvaysiygacha bunday shoira bo'lmagan. Uning shaxsiyati jasur, fidoyi va haqgo'y shoiralarga xos axloqiy, ruhiy sifatlar ustunlik qiladi. Badiiy jihatdan pishiq, go'zal she'riyati nafaqat shoirlar uchun, balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilsa arziydi"⁶. Chunki Uvaysiy she'riyatining o'ziga xos uslubi, mazmun-mohiyati, qolaversa, u qo'llagan obrazlarning asl mohiyatini anglashdagi murakkablik shoira ijodiy merosini yuqori pog'onaga ko'tara olgan. "Uvaysiy she'riyatidagi har bir timsol mohiyatan keng qamrovga ega. Shoira yuzaki qaraganda, oddiy ko'ringan obrazlar, tabiat hodisalari vositasida chuqur falsafiy-irfoniy mohiyatni ham ifodalashga erishgan"⁷. Darhaqiqat, Uvaysiy she'riyati nafaqat o'zining mazmun-mohiyati, balki an'anaviy obrazlarni o'rinni qo'llay olganligi bilan ham ahamiyatlidir. Biz shoira she'riyatini tahlil qilish jarayonida uning Farhod, Shirin, Mansur, Zulayxo, Majnun Layli kabi obrazlarga ko'p murojaat qilganligiga guvoh bo'ldik. Xususan, birgina Layli timsoli shoiraning 1983-yil nashrdan chiqqan "Ko'ngil gulzori" nomli kitobida 18 o'rinda qo'llangan bo'lib, uni Laylivash, Laylo, Laylinamolig', Layli kabi shakllarda uchratamiz.

*Jamolin ko'zhusida Majnunoso ko'rdim ahvolim
Nechun Laylinamolig' shevayi ul gul'uzorinda*⁸

Lirik qahramon ishqda shunday martabaga erishganki, uning ahvoli Mahbub jamolining ko'zhusida Majnun misoli, ma'shuqaning ishvasi esa Laylinamodir. Aslini olganda, "muhabbat – tasavvufning asosiy ruknlaridan biri. Juda ko'p irfoniy tushuncha-istilohlarning sharhi muhabbatga kelib bog'lanadi. Chinakam solik – bu oshiq solikdir. Ishq – ilohiy

ma'rifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olov qalbda ishq qanchalik kuchli bo'lsa, solik ma'rifat zinalaridan shuncha bardam ko'tarila boradi, nafsiy sifatlarni tark etib, kamolot cho'qqilarini zabt etaveradi"⁹. Mazkur tasavvufiy qarashlar haqida ilmi-ma'rifat hosil qilgan Uvaysiy an'anaviy obrazlar yordamida Haqqa bo'lgan muhabbatni mahorat bilan ifoda etgan. Professor A.Hayitmetovning yozishicha: "Uvaysiyga qadar biron o'zbek shoiri o'z sevgilisini erkalab, uning yuzini gulzorga va unda ochilib turgan ra'noga qiyoslab g'azal bitmagan"¹⁰. Bu esa Uvaysiy ijodida Ishqqa bo'lgan munosabatning o'ziga xos oliy ko'rinishi sanaladi. Bu o'rinda Uvaysiyning mahorati shundaki, "Alloh jamolini Layli timsolida yaratib, ustalik bilan obrazga singdira olganki, dunyoviy ma'shuqa bilan ilohiy ma'shuqa orasida farq qolmagan"¹¹. Shoira bu o'rinda Layli timsolini Yaratganning yerdagi tajalliysi ma'nosida qo'llangan.

Uvaysiy ijodkor sifatida ko'ngli tubidagi bor haqiqatni hech ikkilanmay o'z ijodida namoyon qila olgan. Bu haqda A.Turdialiyev shunday deydi: "Shoira lirikasida asosiy o'rinni ishq-muhabbat mavzusi egallaydi. Yuksak did va mahorat bilan yozilgan bu she'rlarda oshiq qalbning iztirobli kechinmalari o'z aksini topgan"¹².

*Majnun tanimni ra'shasini ta'na etmagil,
Bir Laylivash g'ami bila devonadur ko'ngul.* (Uvaysiy, 107-bet).

Ya'ni shoiraning lirik qahramoni bir go'zal Laylivashning g'ami bilan devona bo'lgan, shu sabab Majnunoso tanining titroqlarini ta'na etmaslikni uqtirmoqda. Bu o'rinda ham shoiraning tasavvufiy qarashlari namoyon bo'lgan. Ya'ni bunda shoira Allohning visoliga yetish yo'lidagi g'am-alamlari orqali devona Majnun holiga tushgan lirik qahramon shikoyatini tasvirlagan bo'lsa, boshqa bir g'azalida go'zal Layli tufayli boshiga tushgan g'am-alamlarni hech bir shodiyonaga almashmaydigan, g'amning shirinligi tufayli jon tark etolmaydigan oshiq Majnun qiyofasini shakllantirgan.

*Alishmas hech g'ami Laylini Majnun shodmonliq'ga,
Bu g'am shirinlig'idan tarki jon etmay nechuk qilsun?* (Uvaysiy, 144-bet).

"Majnun – chin oshiq. U she'riyatda asosan, ana shu belgisi – chin oshiqdagi, ishqdagi vafosi bilan namoyon bo'ladi. Har qanday xo'rlik, azob, ruhiy va jismoniy qiynoqlar, kamsitish va haqoratlar Majnunni Laylidan voz kechishga sabab bo'la olmaydi. Layli surati esa beqiyos husn, mukammal shakl-u shamoyil, chiroyli qaddi qomat ifodasi"¹³. Bu o'rinda ham shoira Layli timsoli orqali Allohga bo'lgan chin muhabbatni Majnun obrazi bilan birgalikda ifoda etgan.

⁴ Каюмов А. Кўқон адабий муҳити. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1991. – Б. 248.

⁵ Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгилашиши. Филол.фан.док. дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 4.

⁶ Исоқова Б. Ҳақ шиқида куйиб ёнган Увайсий // Шарқ юлдузи. 2019. № 2. – Б. 56.

⁷ Адизова И. Ко'rsatilgan tadqiqot. – Тошкент: 2020. – Б. 34.

⁸ Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. – Б. 22. (Bundan keyingi iqtiboslar shu manbadan keltiriladi).

⁹ Комилов.Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б. 49.

¹⁰ kh-davron.uz

¹¹ Комилов.Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б. 205.

¹² Увайсий. Мазмун маъдани. Турдиалиев А. Сўзбоши. – Тошкент: Akadempnashr, 2010. – Б. 5.

¹³ Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгилашиши. Филол.фан.докт. дисс. – Тошкент: 2020. – Б. 49.



Qo‘qon adabiy muhitining taraqqiy topishida Mohlaroyim Nodiraning ham alohida xizmatlari bor. U Umarxonning yonida turib, she‘riyatga ixlosi baland, qobiliyatli kishilarni yig‘ib, saroy adabiy muhitini shakllantirgan. Hatto ularni moddiy rag‘batlantirib, ijtimoiy holatining yaxshilanishiga ham ko‘mak bergan. Qolaversa, shu adabiy muhitda Nodiraning ham ijodiy mahorati bevosita charxlanib, rivojlanib borgan.

Olim A.Qayumov shoira ijodi haqida shunday fikrlarni ilgari suradi: “Shoira g‘azallarining asosiy mazmuni hurfikrlilik, muhabbat va sadoqatni ulug‘lash. U har doim insonparvarlik g‘oyalarini adl, insof, xalq manfaatlarini ko‘zlashni maqsad qilgan”¹⁴. Chunki shoiraning asl muddaosi, butun o‘y-fikrlari mazkur jarayonlarga qaratilgan. Bu yondashuvlar shoira ijodida qo‘llangan detallar va obrazlar misolida ko‘zga tashlanadi

Nodira lirikasida qo‘llangan an‘anaviy obrazlardan biri Layli timsoli bo‘lib, mazkur obraz boshqa shoirlar ijodida bo‘lganidek Farhod, Shirin, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayxo kabi obrazlar bilan yonma-yon tasvirlanadi. Shu bois Nodira ham pok muhabbat haqidagi fikrlarini to‘la mukammal pog‘onaga ko‘tarish maqsadida ustoz shoirlar yo‘lidan borganini ko‘rishimiz mumkin.

*Oshiq o‘zi, ma’shuq o‘zidir, lek afsona
 Layli bila Majnun ila Vomiq va Uzro*¹⁵.

Mazkur bayt shoiraning Nodira-Komila nomli devonidan olingan bo‘lib, unda tabiat va ilohiyotning bir butunligi (vahdat ul-vujud) nazariyasiga asoslangan konsepsiya o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, olamdagi barcha narsa, hodisa va o‘zgarishlarning ijodkori bo‘lgan Alloh o‘zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko‘ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Nodira “*oshiq o‘zi, ma’shuq o‘zi*” der ekan, mazkur konsepsiyani Layli bilan Majnun hamda Vomiq va Uzro kabi oshiq-ma’shuqlar haqidagi afsonalar asosida izohlaydi.

Xulosa qilib aytish joizki, Qo‘qon adabiy muhitida yashagan ijodkorlar she‘riyatida qo‘llangan Layli obrazi o‘n bir xil mazmun-mohiyat ifoda etib, u mumtoz adabiyotimizda an‘anaviylik tadrijini takomillashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Филол.фан.докт. дисс. – Тошкент: 2020.
2. Исоқова Б. Ҳақ ишқида куйиб ёнган Увайсий // Шарқ юлдузи. 2019. № 2.
3. Нодира-Комила. Девон. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.2001. – Б. 28.
4. Комилов.Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009
5. Увайсий. Мазмун маъдани. Турдиалиев А. Сўзбоши. – Тошкент: Академташр, 2010.

¹⁴ Қаямов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1991. – Б. 221.

¹⁵ Нодира-Комила. Девон. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.2001. – Б. 28.

6. Увайсий. Қўнғил гулзори. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983.
7. “Тазкиратуш шуарои Ҳашимат”; Имомали Қундузий. “Таворихи манзума”; Мушириф Исфарагий. “Шаҳномаи Нусрат наём”; Н. Ф.
8. Қаямов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1991. – Б. 221.
9. Петровский. “История Кокандского ханства”. Мақола. Журнал. Вестник Европы. 1875. № 10.
10. *kh-davron.uz*